

o‘zlashtirilgan nazariy bilim, egallangan ko‘nikma, malakalar hamda kompetentsiyalar hayot bilan, amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan spiralsimon usulda oddiydan murakkabga tomon rivojlantirilib borishligi nazarda tutilganligi qisobiga, talabalarga bizni o‘rab olgan, doimo harakatda bo‘lgan mikro va makro olamni yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglab, faqmlab. tushunishga va xulosa chiqarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vivian de Landsher. Kontseptsiya “minimalnoy kompetentnosti”. G`G` Perspektivo`, 1988.. №1
2. Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: Подходы и практические меры // Всемирная конференция ЮНЕСКО по высшему образованию, Париж, 1998.
3. Система межпредметных связей по предметам естественно-математического цикла. Сборник научных трудов НИИСиМО. Москва 1981г.
4. Khodjamberdiyev M.S. Didaktik baases of providing holistic, systematized knowledge on the basis of science. Jurnal of ethics and diversity in international communication. 2022-06-01. Volume-2, ISSUE-5
5. Xodjamberdiyev M.S. Fanlararo o‘zaro boqlanish tizimlashtirilgan, yaxlit bilim berishning didaktik asosi sifatida. Obrazovaniya i nauka v XXI veke. №A3-20220621-6, 2022g. s.293-297.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQI VA FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*Abdullaeva Lobar Bazarbaevna
Nukus innovatsion instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Tezida o‘qish darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ularda nutq madaniyati va notiqlik san‘atini shakllantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish haqidabayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, tafakkur, analiz, sintez, voqelik, mavhum, qiyoslash.

Nutq tafakkur bilan bog‘liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy o‘stiriladi. Tafakkur-tevarak atrofning predmet va voqeliklari o‘rtasidagi munosabatlar va qonuniy aloqalarni bilib olishdir. U moddiy olam qonuniyatlarini, tabiat va jamoatchilik-tarixiy xayotdagi sabab-oqibat aloqalarni, inson ruhiyatining qonuniyatlarini tushunish imkoninini beradi. Tafakkur hissiyotlar va idrokda mavjud bo‘luvchi axborotga ishlov beradi, fikriy faoliyatning natijalari esa tekshiriladi va amaliyotda qo‘llaniladi. Idrok etishdagi dialektik yo‘lakcha – jonli mushoxadadan - mavxum tafakkurga va mavhum tafakkurdan – amaliyotga o‘tishni anglatadi.

Insonlarning tafakkur faoliyati tafakkur operatsiyalari (muomalalari): qiyoslash, tahlil va sintez, mavhumot, umumlashtirish va konkretlashtirish kabilar yordamida amalga oshiriladi.

Qiyoslash – bu predmet va voqeliklarni ularning o‘xshashliklari va ular orasidagi farqlarni topish maqsadida chog‘ishtirishdir (taqqoslashdir). K.D.Ushinskiy taqqoslash operatsiyalarini tushunishning asosi deb hisoblagan. U inson xar qanday predmetni faqat boshqa bir predmetga tenglashtirish orqali yoki uni boshqa bir predmetdan farqlash orqali bilib oladi deb hisoblagan. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g‘oyasini anglab etishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo‘llanadi. Analiz - bu predmet yoki voqelikning o‘z tarkibiy qismlariga hayoliy (fikrda) bo‘linib ketishi, undagi aloxida qismlar, belgilar va xususiyatlarning ajralib chiqishidir.

Sintez – bu alohida elementlar, qismlar va belgilarning butun bir birlikka fikran bog‘lanishidir. Tahlil va sintez bir-birlari bilan xar doim uzviy bog‘liq, bilish (bilib olish) jarayonida ular bir-birlari bilan birlikda namoyon bo‘ladi: biz faqat sintetik jixatdan butun bo‘lganni tahlil qilamiz, va aksincha tahliliy jihatda bo‘linib ketganinigina sintez qilamiz.

Analiz va sintez - muhim fikriy (xayoliy) operatsiyalardir, ular faqat birgalikdagina real voqelikning to‘liq va barcha tomonlama bilimni taqdim etadi. Analiz aloxida elementlar bo‘yicha bilim beradi, sintez esa tahlil natijalariga tayangan holda, bu unsurlarni umumlashtiradi, obyekt haqidagi to‘liq bilimni ta‘minlaydi. O‘qishni o‘zlashtirgani holda bola o‘qituvchining rahbarligi ostida tahlil va sintez (tovush va xarflardan bo‘g‘inlar tuzadi, so‘zlardan esa gaplar tuzadi)ni amalga oshiradi.

O‘qilgan asarni analiz qilishda har xil ish uslublaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o‘qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o‘quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o‘qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so‘raydi. Natijada o‘qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O‘qituvchi bergan savollar yordamida

asarlarning mazmuni aniqlanadi. Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o‘quvchilardan ongli ishlashni, ya’ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini analiz qilishni talab etadi. O‘qish bilan bog‘liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri turli uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli, o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi.

O‘quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab etadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o‘zaro bog‘lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba‘zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab etmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Umarova M, Sh.Hakimova. O‘qish darslari (3-sinf uchun). T.: Cho‘lpon, 2008. 126 b.
2. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.
3. Azixo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2013.
4. G‘ulomov A, Qobilova B., Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari.- T.: 2019.